

## **ОГЛАВЛЕНИЕ**

1. ПРИВЕТСТВИЕ. ЗНАКОМСТВО (Уроки 1-3).....	2
2. ЖИВОТНЫЕ (Уроки 4-15).....	10
3. МОЯ СЕМЬЯ (Уроки 16-20).....	38
4. ИГРУШКИ (Уроки 21-25).....	47
5. ТРАНСПОРТ (Уроки 26-28).....	57
6. ЦВЕТА (Уроки 29- 34).....	66
7. ЧАСТИ ТЕЛА (Уроки 34-38).....	75
8. ПРОДУКТЫ (Уроки 39-47).....	82
9. МОЙ ДОМ (Уроки 18-50) .....	102

## **1-MAVZU: «SALOMLASHISH. TANISHUV»**

### **Mavzu bo'yicha lug'at.**

Здравствуйте – Salom!

Привет – Salom!

Доброе утро! - Xayrli tong!

Добрый вечер! – Xayrli kech!

Спокойной ночи! – Xayrli tun!

До свидания! - Ko'rishkuncha!

Пока! – Xayr

Как тебя зовут? – Isming nima?

Меня зовут ... – Mening ismim ...

Как твои дела? – Ishlaring qalay?

Хорошо! – Yaxshi!

Сколько тебе лет? – Necha yoshdasan?

Мне (пять/шесть) лет... – Men (besh/olti) yosh.

Спасибо! – Rahmat

Пожалуйста! – Iltimos

Руки вверх! – Qo'llar tepaga!

Руки вниз! – Qollar pastga!

Прыгай! – Sakramoq!

Повернись! – Ortga burilmoq!

Хлопай в ладоши! – Qarsak chaling!

Топай ногами! – Qadam tashlang!

Беги! – Yugurmoq!

Иди! – Bormoq!

Закрой глаза! – Ko'zlariningizni yuming!

девочка. – qiz bola

мальчик. – o'g'il bola.

## **1- Dars**

### **Ushbu darsda bolalar:**

- 1) aholisi rus tilida gaplashadigan mamlakatlar haqida;
- 2) 3 ga qadar rus tilida sanashni;
- 3) rus tilida salomlashish va hayirlashishni;
- 4) «Как тебя зовут?», «Меня зовут... (Сардор)». savolga javob berishni
- 5) turli buyruqlarni tushunish va amalga oshirishni («Руки вверх!», «Руки вниз!», «Прыгай!», Кружись! «Стой!», «Хоп!») o'rganadilar;

### **Ushbu dars uchun sizga kerak bo'ladi:**

- 1) qo'lga kiyish mumkin bo'lgan qog'irchoq maymun;
- 2) Oppog'oy, Qizil shapkacha, Zumrad va Qimmat, Bo'ri tasvirli rasmlar;

- 3) ko'k fonda jigarrang qit'alarining taxminiy tasavvurlaridagi katta "xarita";
- 5) sexrli qopcha.

### Darsning borishi

**Tarbiyachi:** Salom kichkintoylar! Mening ismim....! Siz bilan rus tilini birgalikda o'rGANAMIZ. Keling oldin tanishib olamiz? Ismingiz nima?

*Bolalar ismlarini aytishadi.*

**Tarbiyachi:** Bu qanday til bo'ldi rus tili? Aytinglarchi menga, hozir qaysi tilda gaplashyapmiz? Rus tilidami?

**Bolalar:** Yo'q! Uzbek tilida!

**Tarbiyachi:** (*Zumrad va Qimmat rasmini ko'satadi*): Do'stlarimiz qaysi tilda gapplashadilar?

**Tarbiyachi:** To'g'ri, uzbek tilida, chunki *Zumrad va Qimmat* qahramonlarini O'zbekistonda yaratishkan. Mamlakatimizda odamlar uzbek tilida gapplashadilar. Lekin dunyoda boshqa mamlakatlar ham bor. Men sizlarga olib kelgan ajoyib xaritamga qarang. *Это карта*. Bu xarita. Bu erda turli mamlakatlar chizilgan, ko'k rangdagisi - okean, juda ko'p suv bor! Odamlar esa quruqlikda yashaydilar. Mana, turli mamlakatlar: Rossiya. Moldoviya, Tatariston Ushbu mamlakatda bolalar va kattalar rus tilida gapplashadilar. Ammo bizning mamlakatimiz - Uzbekiston! Uzbekistonda odamlar uzbek tilida gapplashadilar.

*Bolalar xaritani ko'rishadi.*

**Tarbiyachi:** (*Oppog' oyni rasmini ko'rsatib*): Bu kim bolalar?

**Bolalar:** Oppog'oy!

**Tarbiyachi:** Хорошо! (Bu "yaxshi!" degani). Oppog'oy haqidagi Multfilmlarni qaysi mamlakatda yaratishkan bilasizmi? Rossiyada! Oppog'oy aslida faqat rus tilida gapiradi. Bu kim?

*Tarbiyachi qizil shapkachani rasmini ko'rsatadi*

**Bolalar:** Qizil shapkacha!

**Tarbiyachi:** Молодцы! Qizil shapkachaham Rossiyada yashaydi, Qizil shapkacha do'stlari bilan qaysi tilda gaplashadi? uzbek tilidami yoki rus tilidami?

**Bolalar:** Rus tilida!

**Tarbiyachi:** Очень хорошо! Juda yahshi!

*Bo'rnini rasmini ko'rsatadi.*

**Tarbiyachi:** Bilamanki, sizlar menga darhol bu rasmdagi hayvonni qanday nomlanishini aytasizlar. Kim biladi?

**Bolalar:** Bo'ri!

**Tarbiyachi:** Очень хорошо! Это волк! Bo'ri rossiyada yashaydi. U yerda ham rus tilida gaplashadilar. Qani menga aytiglarchi bu hayvon qaysi ertak qahramonlarini yeb qo'ygan?

**Bolalar:** Qizil shapkachani buvisini! Uloqchalarni!

**Tarbiyachi:** Молодцы ребята!

**Tarbiyachi:** Bolajonlar qarang menda nima bor, bu sexrli qopcha, Это волшебный мешок. Ushbu sexrli qopcha ichida dugonam yashaydi. U yonimga Rossiyadan kelgan

va faqat rus tilida gaplasha oladi. Sizlarning yonizga bormoqchi bo'lib turganimda men bilan borishni iltimos qildi. Faqat u juda uyalyapti. Keling ko'zlarimizni yumamiz, keyin u paydo bo'ladi, faqat sizlar rus tilida uchgacha sanashingiz kerak: один два три! Demak, закройте глаза! (ko'zlarimizni yumamiz).

*Bolalar ko'zlarini yumadi va uchgacha sanashadi.*

**Tarbiyachi** (*tezda maymunni qoliga kiyib oladi:*) Раз, два, три! Откройте глаза!

*Bolalar ko'zlarini ochishadi.*

**Maymuncha:** Привет!

**Tarbiyachi:** Bolajonlar bu kim? Это обезьяна. Bu maymuncha. «Привет, Обезьяна, рада видеть тебя!». (buni men aytdim: "Salom, maymun, seni ko'rganimdan xursandman!"). Kelinglar maymuncha bilan rus tilida salomlashamiz « Привет, Обезьяна! »

**Bolalar:** Привет, Обезьяна!

**Tarbiyachi:** Maymuncha sizlar bilan tanishishni xohlayapti. Ahir u sizlarning ismlaringizni bilmaydiku. U sizlardan ismlaringizni so'raydi. Как тебя зовут? (Ismingiz nima?) sizlar esa ismlaringizni aytasizlar, shunday qilib tanishib olasizlar.

*Tarbiyachi va maymuncha har bir bolani yoniga borib kichik suxbat o'tkazadi.*

**Maymuncha:** Привет! Меня зовут Обезьяна. Как тебя зовут?

**Bolalar:** Меня зовут ...

*Bolalar maymuncha bilan tanishadilar.*

**Tarbiyachi:** Bolalar, maymuncha menga nimadir aytishni xohlayapti (maymuncha tarbiyachining qulog'iga shivirlaydi) А тушунарли. Maymuncha sizlarga rus mashqlarini namoyish etishni istayapti. Hohlaysizlarmi?

**Bolalar:** Да!

*Maymun Tarbiyachiga qaraydi*

**Tarbiyachi:** Bolajonlar, maymuncha tushunmadni, mashqlarini ko'rishni xohlaysizmi yo'qmi. Kelinglar ruschada aytamiz «Да!» («Ha!»)

**Bolalar:** Да!

**Tarbiyachi:** Kel, maymuncha men senga rus mashqlarini aytaman, sen esa bajarasan.

Руки вверх!

Руки вниз!

Прыгай! Прыгай!

Кружись!

Раз, два, три, хоп! (*Ushbu so'zlar davomida bir oyoqda sakrash kerak.*)

Раз, два, три, стой!

**Tarbiyachi:** Ushbu mashqlar yoqtimi? Keling, buni birgalikda bajarishga harakat qilamiz. Faqat maymunchamiz charchab qolipti. Ahir u uzoq yo'l bosib Rossiyadan keldiku. Maymuncha, yotib uhla, dam ol. Biz esa bolalar bilan asta-sekin rus mashqlarini bajaramiz. Har ehtimolga qarshi bolalarga «Ko'rishkuncha» deb ayt («До свидания!!»).

**Maymuncha:** Пока, дети!

**Tarbiyachi:** Va sizlar, faqat rus tilida maymunchamiz bilan xayrlashinglar.

**Bolalar:** До свидания, Обезьяна!

*Tarbiyachi maymunni qopchaga solib qoyadi*

**Tarbiyachi:** Shunday qilib, maymuncha uyg'onmasligi uchun, keling, rus mashqlarini ohistalik bilan qanday bajarish kerakligini bilib olamiz va kelgusi safar bizga Maymuncha tashrif buyurganda, u qanday qilib buni bilib olganimizdan hayratda qoladi.

*Bolalar mashqlarni bajarishadi «Руки вверх! Руки вниз!...»*

**Tarbiyachi:** Ana endi bolajonlar bu mashqlarni mensiz bajarishka harakat qilib ko'ringlar.

*Bolalarning o'zları mashqlarni bajarishadi Tarbiyachi esa rus tili so'zlarini aytadi, agar bironta bola unutib qo'ysa, Tarbiyachi unga qanday bajarish kerakligini ko'rsatib beradi.*

**Tarbiyachi:** Молодцы ребята! («Barakalla»). Bugun ko'p qiziqarli narsalani bilib oldik. Maymuncha qayerdan keldi? U qaysi tilda gapiradi? Rus tilida qanday salomlashib hayrashadilar? До свидания!

## 2 - Dars

### **Ushbu darsda bolalar:**

- 1) 4 ga qadar rus tilida sanashni;
- 2) «Рад видеть тебя!» so'z birikmasini;
- 3) suhbatdoshning ismini so'rashni «Как тебя зовут?»,
- 4) savolga javob berishni: «Как тебя зовут?», «Кто ты?»,  
«Я ... (Sanjar)» tuzilishidan foydalanishni;
- 5) nima qilishlari haqida xabar berishni;
- 6) “Что ты можешь сделать?”, “Ты можешь... (бегать)?”; so'roqlariga javob berishni
- 8) Tarbiyachini turli buyruqlarini bajarishni: «Хлопайте!», «Топните ногами!»,  
«Трогай ушёй!», «Трогай щеку!», «Рукопожатие!», «Улыбнитесь! », «Бегите! »,  
«Вперед! », «Прыгай! », «Хоп! »

### **Ushbu dars uchun sizga kerak bo'ladi:**

- 1) qog'irchoq maymuncha;
- 2) bironta harakatli qoshiq;
- 3) bir oyoqda sakrayotkan, yugurayotkan, sakrayotkan bolalarni yoki xayvonlarning suratlari;

### **Darsning borishi**

**Tarbiyachi:** Привет всем! Привет, дети! Salom Bolajonlar! Я очень рада видеть вас! Sizlarni ko'rganimdan juda hursandman! Давайте начнем наш урок русского. Keling rus tili darsimizni boshlimiz. О, но где Обезьяна?

Aytkancha, Maymunchamiz qayerda ekana? Balki usiz boshlarmiz. Esladim, bugun ertalab sizlarni yoningizga chiqishka uyalayotkanini aytkandi. Kelinglar u qo'rqmasligi uchun ko'zlarimizni yumib 4 gacha sanaymiz. Закройте глаза и считайте: раз, два, три, четыре!

**Bolalar (ko'zlarini yumishadi):** Один два три четыре!

*Tarbiyachi tezda maytunni qoliga kiyib oladi*

**Maymuncha:** Привет, детки!

**Bolalar:** Привет, обезьяна!

**Maymuncha:** Рад видеть вас.

**Tarbiyachi:** Bolajonlar Maymuncha sizlarni ko'rganidan hursand ekanligini aytyapti  
Рад видеть вас. Maymuncha, bolalarning ismlarini unutmadingmi? Ты помнишь  
имена детей, Обезьяна? Hozir tekshiramiz.

*Maymuncha bolalarning yonlariga borib avval ismlarini no'tog'ri aytadi, keyin eslaydi.*

**Maymuncha:** Ты Ахроп?

**Tarbiyachi:** Sen ahir Ahror emassanku, unga: « Нет, я не Ахроп ». deb ayt.

**Bola:** Нет, я не Ахроп

**Maymuncha:** Ты Сарвар?

**Tarbiyachi:** Sen Sarvarsan unga: « Да, я Сарвар » (Ha, Sarvarman). deb ayt

**Bola:** Да, я Сарвар.

*Qolgan bolalar bilan ham huddi shunday suhbatlashadi.*

**Tarbiyachi:** Bolajonlar kelinglar Maymunchaga ismlarimizni aytamiz. Har birimiz  
«Я.....». so'ziga ismlarimizni qo'yib aytamiz.

*Bolalar ismlarini aytishadi.*

**Tarbiyachi:** Ana endi Maymuncha ismlarimizni bilib oldi. Birgalikda «Привет!»  
о'йини о'унаемиз Давайте играть!

*Bolalar Tarbiyachi va maymuncha «Привет!» o'jinini o'ynashadi.*

**Tarbiyachi:** Ajoyib, juda yahshi o'ynadinglar kelinglar qarsak chalamiz. Хлопайте!

*Bolalar qarsak chalishadi.*

**Tarbiyachi:** Bolajonlar, Maymuncha menga nimadir demoqchi.

*Maymuncha Tarbiyachini qulog'iga shivirlaydi.* А, тушнада, Maymuncha sizlarga  
do'stlarini rasmlarini ko'rsatmoqchi ekan.

*Maymuncha yugurayotkan, sakrayotkan bolalarni va hayvonlarni suratlarini oladi*

**Tarbiyachi (rasmlarni ko'rsatadi):** Что ж, Обезьяна, давай посмотрим твои  
картинки. Ho'sh, Maymuncha, qani rasmlarini ko'raylikchi. O'-o' do'stlaring juda tez  
yugurishar ekan!

**Maymuncha:** Они могут и бегать, и бегать, и бегать.

**Tarbiyachi:** Ular sakray olishadiyam.

**Maymuncha:** Они могут прыгать, прыгать и прыгать.

**Tarbiyachi:** Va yura olishadi.

**Maymuncha:** Они могут идти, и идти, и идти.

**Tarbiyachi:** Bir oyoqda sakray olishadi!

**Maymuncha:** Они могут прыгать, прыгать и прыгать.

**Tarbiyachi:** Hato kulishadi!

**Maymuncha:** Они могут улыбаться, улыбаться и улыбаться. Я тоже все могу!

**Tarbiyachi:** Maymuncha bularni men ham bajara olaman deyapti. Qani bizga  
ko'rsatsinchi, qanday baja olishini. Хорошо, Обезьяна, что ты умеешь?

**Maymuncha** (*yuguradi, sakraydi, yuradi va x.k.*): Я могу бегать. Я умею прыгать. Я могу идти. Я могу хлопать. Я могу трогать ушёй. Я могу прикоснуться к своим щекам.

**Tarbiyachi:** Отлично! ajoyib Maymuncha, qani qanday bajara olarkansan. Bolajonlar kelinglar Maymuncha bilan o'yin o'ynaymiz. Unga aytamiz u esa bajaradi. Обезьяна, готова?

**Maymuncha:** Да.

**Tarbiyachi:** Обезьяна, беги!

*Maymun qimirlamaydi.*

**Tarbiyachi:** Qiziq, ahir unga: « Обезьяна, беги! », «Maymuncha, yugur!» dedimku u esa yugurmayapti. Bolajonlar sizlar bilmaysizlarmi? Aaa, toptim ahir unga iltimos qilmapmanku. Unga iltimos maymuncha yugur deyishimiz kerak ekan. Ruschasini aytamiz. Обезьяна, беги пожалуйста.

*Maymuncha stol atrofida yuguradi.*

**Tarbiyachi:** Обезьяна, прыгай, пожалуйста. Обезьяна, прыгай, пожалуйста. Обезьяна, повернись, пожалуйста. Обезьяна, пожалуйста, хлопай. Обезьяна, пожалуйста, топни ногами. Обезьяна, подними руки, пожалуйста. (*Maymuncha buyruqlarini bajaradi.*)

Bolajonlar kim Maymunchaga yana mashqlarni bajartirishni hohlaydi?

*Bolalar Maymunchaga buyruq berishadi.*

**Tarbiyachi:** Молодцы, детки. Barakalla bolalar hozir siz qanday qilib maymunlarni o'qitishni o'rgandingiz. Siz ularni chopish, sakrash va aylantirish, qo'llarini ko'tarish va tushirishga o'rgatishingiz mumkin, bir oyog'ida sakrash. Maymuncha bilan birgalikda mashq bajaramiz va barcha harakatlarni takrorlaymiz. Руки вверх, руки вниз

Прыгать, прыгать,

Повернись.

Раз, два, три, хоп!

Один, два, три, стоп!

Bolajonlar, o'ynashni yoqtirasizlarmi? Hohlasangiz birgalikda o'ynaymiz, вместе. Menda bir quvnoq qo'shiq bor kelinglar uni tinglaymiz va men sizlarga qanday o'ynash kerakligini ko'rsataman. Maymuncha esa shu yerda o'tirib bizni tomosha qiladi. Tarbiyachi „ Если Весело Живется, Делай Так “, qoshig'ini qo'yadi va qo'shiq so'zlariga mos holda oddiy harakatlarni bajaradi.

**Tarbiyachi:** Ana endi bolajonlar, birgalikda bajaramiz, Давайте танцевать вместе!. Kelinglar birgalikda o'ynaymiz! Встаньте! Посмотрите на меня и сделайте то же самое:

Если весело живется делай хлоп

Если весело живется делай хлоп

Если весело живется мы друг другу улыбнемся

Если весело живется делай хлоп

Если весело живется делай топ

Если весело живется делай топ

Если весело живется мы друг другу улыбнемся  
Если весело живется делай топ

Если весело живется пой ура  
Если весело живется пой ура  
Если весело живется мы друг другу улыбнемся  
Если весело живется пой ура

Если весело живется делай все  
Если весело живется делай все  
Если весело живется мы друг другу улыбнемся  
Если весело живется делай все

**Tarbiyachi:** Молодцы, ребята, хорошо у вас получается. Juda yahshi, Bolajonlar buni yahshi o'zlashtirdingiz. Понравилась вам песенка? Qoshiq yoqdimi sizlarga? Понравилось вам танцевать? Raqsga tushishchi? Keyingi darsimizda biz yana raqsga tushamiz. Hozir esa darsimizni yakunllaymiz! Ну а сейчас время прощаться!

**Maymuncha:** До свидания, детки!

**Tarbiyachi:** До свидания!

**Bolalar:** До свидания!

Ushbu konspektning *to'liq videolari bilan olish uchun*  
Telegramdan **@slaydlar\_english** yoki +99899 398 41 46 raqamiga telegram orqali  
xabar yozing  
Konspekt narxi barcha materiallar bilan

**Narxi 50 000 so'm**

To'lovlar **click, payme** yoki paynet\* orqali (*tel nomerga emas*)  
DIQQAT! Bog'lanish faqat telegram orqali! Telefon qilinganda yoki SMS  
yozilganda javob bermasligim ehtimoli yuqori